



# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## XORAZM VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

**Izoh:** 2024-yil yanvar-dekabr holatiga ma'lumotlar dastlabki, qolgan davrlar bo'yicha yakuniy ma'lumotlar keltirilgan.



**2024-yil yanvar-dekabr**

**XORAZM VILOYATINING DOIMIY AHOLISI***2025- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar*

Xorazm viloyatida 2025- yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni 2032,4 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 36,8 ming kishiga yoki 1,8 % ga ko'paydi.

Jumladan, shahar aholisi soni 670,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,0 %), qishloq aholisi soni 1362,4 ming kishini (67,0 %) tashkil etdi.

**Shahar aholisi  
soni- 670,0**

**Qishloq aholisi  
soni-1362,4**



**Erkaklar soni- 1017,6**


**Ayollar soni-1014,8**

### Doimiy aholi sonining jinsi bo'yicha taqsimlanishi

2025- yilning 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni 2032,4 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 1017,6 ming kishini, ayollar soni 1014,8 ming kishini tashkil etdi. Jumladan, shahar joylarda erkaklar soni 335,1 ming kishini, ayollar soni 334,9 ming kishini tashkil etgan. Shuningdek, qishloq joylarda erkaklar soni 682,5 ming kishini, ayollar soni 679,9 ming kishini tashkil etdi.



2025- yil 1- yanvar holatiga erkak va ayollar soni (ming kishida)



### Doimiy aholi sonining yillar bo'yicha taqsimlanishi

(yanvar-dekabr holatiga)

1 893,3  
ming kishi

2020-y

1 924,2  
ming kishi

2021-y

1 958,1  
ming kishi

2022-y

1 995,6  
ming kishi


2023-y

2 032,4  
ming kishi

2024-y



### Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil yanvar-dekabr






*2025- yil 1- yanvar holatiga yosh guruhlari bo'yicha aholi soni*



2025-yil 1 –yanvar holatiga ko‘ra, viloyat doimiy aholisi sonining 31,1 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,3 %i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,6 %i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## Yanvar-dekabr holatiga doimiy aholi sonining jins tarkibi (ming kishi)



## Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi


1- yanvar holatiga, ming kishi

Urganch sh	155,7
Xiva sh.	100,1
Bog'ot	179,6
Gurlan	159,8
Qo'shko'pir	185,4
Urganch	218,4
Hazorasp	210,0
Tuproqqal'a	60,6
Xonqa	201,9
Xiva	158,3
Shovot	183,6
Yangiariq	125,1
Yangibozor	93,9

Hududlar bo'yicha doimiy aholi soni eng ko'p Urganch tumanida – 218,4 ming kishi, Hazorasp tumanida – 210,0 ming kishi, Xonqa tumanida – 201,9 ming kishi, Qo'shko'pir tumanida – 185,4 ming kishi, eng kam aholi soni Tuproqqal'a tumanida – 60,6 ming kishi, Yangibozor tumanida – 93,9 ming kishi, Yangiariq tumanida – 125,1 ming kishi va Urganch shahrida – 155,7 ming kishini tashkil qildi.

### Xorazm viloyati bo'yicha aholi zichligi

2025- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Viloyatda 2025- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 336 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 6 kishiga ortgan (2024- yil 1- yanvar holatiga 1 kv.km.ga 330 kishi bo'lgan).

Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida 5375 kishi, Xiva shahrida 2937 kishi, Urganch tumanida 490 kishi, Hazoraspi tumanida 468 kishi, Xonqa tumanida 466 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tuproqqal'a tumanida 38 kishi, Yangibozor tumanida 274 kishi, Yangiariq tumanida 311 kishi, Qo'shko'pir tumanida 344 kishini tashkil etgan.

### Xorazm viloyati bo'yicha yillar kesimida aholi zichligi dinamikasi

1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




### Xorazm viloyati hududlari boyicha qayd etilgan tug‘ilishlar

2024 yil yanvar-dekabr, kishi

Urganch sh.	3 825
Xiva sh.	2 173
Bog‘ot	4431
Gurlan.	3 620
Qo‘shko‘pir	4 190
Urganch	4 624
Hazorasp	5 438
Tuproqqal’a.	1 419
Xonqa	4 817
Xiva	3 866
Shovot	4 303
Yangiariq	2 677
Yangibozor	2 040


Viloyat bo‘yicha 47 423 nafar tug‘ilishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 nafar aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 23,5 promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2023- yilga nisbatan 0,9 promillega kamayganligi kuzatildi.

(2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 24,4 promilleni tashkil etgan).




### Yillar kesimida tug‘ilganlar dinamikasi

( yanvar- dekabr, ming kishi )





Yillar kesimida vafot etganlar dinamikasi, ming kishi



Xorazm viloyati hududlari boyicha vafot etganlar, kishi

2024 yil yanvar-dekabr, kishi

Viloyat bo'yicha 9 036 nafar vafot etganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 nafar aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan 0,1 promillega kamayganligi kuzatildi.

(2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 4,6 promilleni tashkil etgan).



Urganch sh. 1 022

Xiva sh. 429

Bog'ot 786

Gurlan 692

Qo'shko'pir 771

Urganch 894

Hazorasp 918

Tuproqqal'a 260

Xonqa 843

Xiva 644


Shovot 796

Yangiariq 561

Yangibozor 420

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patalogik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz xodisa va zo‘ravonlik holatlari tushuniladi.


**Vafot etganlarning asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha taqsimlanishi soni, kishi**



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining 49,0 %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 11,1 %i – o‘simtalardan, 5,3 %i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 5,0 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,9 %i – ovqat hazm qilish a‘zolari baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,9 %i – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 23,8 %i boshqa kasalliklaridan yuz bergan.

### Xorazm viloyati hududlari boyicha qayd etilgan nikohlar, birlik

2024 yil yanvar-dekabr





Viloyat bo'yicha 16 282 nafar nikohlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 nafar aholiga nisbatan nikoh koeffitsiyenti 8,1 promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan 0,2 promillega kamayganligi kuzatildi.

(2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 8,3 promilleni tashkil etgan).




### Yillar kesimida qayd qilingan nikohlar dinamikasi, ming birlik



**Xorazm viloyati hududlari bo'yicha nikohdan ajralishlar, birlik***2024 yil yanvar-dekabr*

2024-yil yanvar-dekabr oylarida 1 924 nafar ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 nafar aholiga nisbatan ajrim koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan 0,2 promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 1,2 promilleni tashkil etgan).

**Yillar kesimida nikohdan ajrashganlar dinamikasi, birlik**



## AHOLI MIGRATSIYASI

*(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)*

2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni 10 822 kishini tashkil etdi.


Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami 12 391 kishini, migratsiya saldosi minus 1569 kishini tashkil etdi. (2023- yil yanvar-dekabr oylarida minus 1808 kishini tashkil etgan).

### Xorazm viloyati hududlari bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar, kishi

	2023 - yil yanvar- dekabr			2024- yil yanvar- dekabr		
	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi
<b>Viloyat</b>	<b>7 871</b>	<b>9 679</b>	<b>-1 808</b>	<b>10 822</b>	<b>12 391</b>	<b>-1 569</b>
<i>shaharlar:</i>						
Urganch sh	2 152	2 446	-294	2 902	3 139	-237
Xiva sh.	448	638	-190	551	1 068	-517
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	186	347	-161	223	372	-149
Gurlan	189	481	-292	283	593	-310
Qo‘shko‘pir	258	539	-281	413	729	-316
Urganch	2 110	1 504	606	2 960	1 843	1 117
Hazorasp	295	931	-636	437	941	-504
Tuproqqal‘a	681	382	299	771	628	143
Xonqa	210	580	-370	318	743	-425
Xiva	546	627	-81	1 048	825	223
Shovot	255	539	-284	358	642	-284
Yangiariq	319	365	-46	309	446	-137
Yangibozor	222	300	-78	249	422	-173


## YILLAR KESIMIDA KO‘CHIB KELGANLAR DINAMIKASI

2024- yil yanvar-dekabr, kishi



## Xorazm viloyati hududlari bo‘yicha ko‘chib kelganlar

2024- yil yanvar-dekabr, kishi




2024-yilning yanvar- dekabr oylarida 10 822 ta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti 5,4 promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilga nisbatan 1,4 promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 4,0 promille bo‘lgan).




### Xorazm viloyati hududlari bo'yicha ko'chib ketganlar

2024- yil yanvar-dekabr, kishi

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 12 391 ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 6,2 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 1,3 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,9 promille bo'lgan).



### YILLAR KESIMIDA KO'CHIB KETGANLAR DINAMIKASI



## Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'rvonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya, mehnat va gender  
statistikasi bo'limi**

*Tel: 62 224-65-08*